Social Science and Innovation
December, 2023
https://supportresult.uz/index.php/ssai
Volume: 1
Issue: 4
✓ EDUCATION
✓ HISTORY
✓ PHILOSOPHY
✓ PEDAGOGY
✓ PHILOLOGY
✓ PSYCHOLOGY
Research
SOCIAL SCIENCE AND INNOVATION
ISSN – 2992-9180
Volume 1, Issue 3, Pages: 25-33
Jild I, Son 3, Sahifalar: 25-33
IJTIMOIY FAN VA INNOVATSIYA
СОЦИАЛЬНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИЯ

Siddikova Saidakhon
Master student
National university of Uzbekistan
saidasiddiqova@gmail.com

Siddiqova Saidaxon
O'zMU tarix fakulteti magistranti
saidasiddiqova@gmail.com

Сиддикова Сайдахон
Магистр
Национальный университет Узбекистана
saidasiddiqova@gmail.com

G'IYOSIDDIN XONDAMIR ASARLARI – O'RTA OSIYO XALQLARI TARIXIGA OID MUHIM MANBA

ANNOTATSIYA: **Mazkur maqola XV–XVI asrlarda yashab ijod yetgan mashhur tarixchi olim, Tumuriylar davlati arboblaridan biri bo'lgan G'iyosiddin Xondamir asarlarining manbaviy ahamiyatini ochib berishga bag'ishlangan. Undan G'iyosiddin Xondamir asarlarida Temuriylar davlati tarixiga doir masalalarning yoritilishi, keyingi davrlarda ushbu muallif ilmiy merosining o'rganilishi, hamda ularning manbaviy ahamiyatini o'chib berishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar sharhi o'rin olgan.**

KALIT SO'ZLAR: **Xuroson, Hirot, Temuriy hukmdorlar, XV–XVI asrlarda madaniy hayot, G'iyosiddin Xondamir, tarixchi olimlar, tarixiy asarlar, ilmiy meros.**

ПРОИЗВЕДЕНИЯ ГИЯСИДДИНА ХАНДМИРА - ВАЖНЫЙ ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ: **Данная статья посвящена раскрытию источникового значения трудов Гиёсиддина Хондамира – известного историка и учёного, жившего в XV-XVI веках и являвшегося одним из деятелей государства Тумур. В нем труды Гиёсиддина Хондамира включают разъяснение вопросов, связанных с историей государства Тимуридов, изучение научного наследия этого автора в более поздние периоды, а также обзор научных исследований, посвященных стиранию их исходного значения.**

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: **Хорасан, Герат, правители Тимуридов, культурная жизнь XV-XVI веков, Гиязиддин Хондамир, учёные-историки, исторические труды, научное наследие.**

SOURCE OF GIYASIDDIN KHANDMIR - AN IMPORTANT SOURCE ON THE HISTORY OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA

ABSTRACT: This article is dedicated to revealing the source significance of the works of Ghiyosiddin Khondamir, a famous historian and scientist who lived in the XV-XVI centuries and was one of the figures of the Tumur state. In it, the works of Ghiyosiddin Khondamir include the clarification of issues related to the history of the Timurid state, the study of the scientific heritage of this author in later periods, and the review of scientific researches dedicated to erasing their source significance.

KEY WORDS: Khurasan, Herat, Timurid rulers, cultural life in the 15th-16th centuries, Ghiyaziddin Khondamir, historical scientists, historical works, scientific heritage.

Tarix fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan tarixchi olim, davlat arbobi G‘iyosiddin ibn Xumomiddin Muhammad ibn xo‘ja Jaloliddin Muhammad ibn xo‘ja Burxoniddin 1473–1476 yillar oralig‘ida Hirotda tug‘ulganligi taxmin qilnadi. Otasi Xumomiddin Muhammad o‘z davrining yetuk ilmli kishilaridan bo‘lib, Sulton Mahmud Mirzo Sulton Abu Said o‘g‘li qo‘l ostida vazir bo‘lgan. Onasi esa mashhur tarixchi Mirxondning qizi bo‘lgan. Xondamir bobosi Mirxond tarbiyasida ulg‘aygan bo‘lib, yoshlik chog‘idan tarix, ilmu adab, insho ilmlarini mukammal egallab zamonasining mashhur olimlaridan bo‘lib yetishgan. Bobosi Mirxond orqali Alisher Navoiy bilan tanishgan, yoshlik chog‘idanoq olimlar, shoirlarning ilmiy davralarida qatnashgan. Uni buyuk tarixchi olim bo‘lib yetishishida Alisher Navoiyning hissasi kattadir. Navoiy ko‘plab shoirlar, naqqoshlar, xattotlar qatorida Xondamirning ilmiy ishlariga bevosita rahbarlik qilgan. Xususan, shoir o‘zining "Majolis ul-nafois" asarida Xondamirni “Mirxondning farzandidur, salohiyatli yigitdur, tarix ilmidan mahorati buyukdur”, deb ta‘riflagan [1: B. 125.].

Xondamir, shuningdek, “Naqiy” taxallusi bilan she‘rlar ham yozgan bo‘lib, o‘zining “Makorim ul-axloq” asarini yozishda she‘rlaridan ham foydalangan. O‘smirlik chog‘laridayoq mashhur davlat va fan arbobi Alisher Navoiy nazariga tushgan tarixchi-olim umrini oxirigacha ustozi yonida bo‘lib, uning kutubxonasida mutasaddilik qilgan. Xondamir nafaqat Navoiy balkim zamonasining ko‘plab ilm ahillari hurmatiga sazovor bo‘lgan tarixiy shaxs bo‘lib, Navoiy vafotidan so‘ng Husayn Bayqaroning o‘g‘li Badiuzzamonning qo‘l ostida atoqli davlat arbobi, tarixshunos olim bo‘lib faoliyat yuritgan.

Temuriylar mamlakatidagi to‘s-to‘polonlardan so‘ng 1528-yil Hindistonga ketadi va “Hasht behisht” bog‘ida Bobur Mirzo bilan ko‘rishadi va uning xizmatiga kirgan. Bobur vafotidan so‘ng, Humoyun Mirzo xizmatida bo‘lib, uning yaqin kishilari qatoridan joy olgan. Humoyunshoh unga katta hurmat va izzat-ikrom ko‘rsatgani

haqida “Qonuni Humoyuniy” asarida ta‘kidlab o‘tilgan [2: Pp. N XXXIV]. Tarixiy manbalardan ma’lumki, Xondamir 1534-yili Gvaliorda va Gujarotga qilgan harbiy yurishlarida ishtirok etgan va unga atab “Qonuni Humoyuniy” asarini yozgan. Bu asar Amir Temurning “Temur tuzuklari”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Xo‘ja Samandar Termiziyning “Dastur ul-mulk” Xofiz tanish Buxoriyning “Abullanoma” asarlari kabi davlatchilik yo‘nalishidagi asarlar turkumiga kiradi. Asarda Humoyunning hukmronlik qilgan davrda joriy etgan yangiliklari, aholining uch tabaqaga, hokimyatni esa to‘rt idora usuliga bo‘lnishi va boburiy hukmdorlarning bunyodkorlik ishlari qiziqarli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Xususan, hijriy 939/1533–940/1534 yillarda qurilgan “Dinpanoh” shahrining qurulishiga rahnamolik qilgani, hatto shahar qurilishini boshlashda birinchi g‘ishtni o‘zi qo‘yib bergani, Agra shahridagi “Gvalyor hisori” Humoyunning tashabbusi bilan qurilgani haqida ma‘lumotlar bergan [2: B. 280-289]. Shuningdek, asarda, uning ixtirolari, ya’ni Ganga daryosining u qirg‘og‘idan bu qirg‘og‘iga bemalol o‘tish uchun yasatirgan sollar, o‘n ikki ustunli xirgohi, ajoyib chodirlari va o‘zi uchun yasattirgan qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan betakror bezakli toji (bu tojning ikkala chekkasida yetti raqami bor b o‘lib, uning raqamlar birlashsa yetmish yetti raqami hosil bo‘lgan. Bu Handasa ilmida “iz” so‘ziga to‘g‘ri kelgani, “iz” so‘zidan izzat so‘zi kelib chiqqani sabab, u “Toji izzat” deb nomlagani haqidagi ma‘lumotlar mavjud. Xondamirning Temuriy hukmdorlarga ko‘rsatgan xizmatlari evaziga unga “Amir al-muarrixin” unvoni bergan. Xondamir 1536-yil Humoyun Mirzo bilan birga Manduga qaytib kelayotganda yo‘lda vafot etgan va uning vasiyatiga binoan Dehliyga Nizomiddin Avliyo va Xusrav Dehlaviylar yoniga dafn qilingan [https://oriftolib.uz/808].

G‘iyosiddin Xondamirning Abdulloxon va Mirmahmud ismli o‘g‘illari bo‘lib, ular ham Boburiylar saroyining hurmatli amaldorlaridan sanalgan. Akbarshoh saroyida xizmat qilgan Sayid Abdulloxonga hukmdor tomonidan “Xoniy” taxallusi berilgan.

Ikkinchi o‘g‘li Mirmahmud esa Safaviy hukmdorlardan Shox Ismoil va Taxmasp davri tarixini yoritgan “Ravzat us-Safaviya” asari muallifidir. Asar Sharafiddin Takalliyga bag‘ishlab yozilgan [https://oriftolib.uz/808].

Umuman olganda, Xondamir umri davomida fors tilida 13 ta asar yozgan. Dastlabki "Xulosat ul-axbor fi ahvol ul axiyor" (Xayirli kishilar ahvolini bayon etish borasidagi xabarlar hulosasi) nomli asari 1498–1499 yillarda yozilgan. Bu asarni yozishda nafaqat Bobosi Mirxondning "Ravzatu us-safo" asari, balki Tabariyning “Tarixi ar-rusul val-mulk”, Hamidullox Qazviniyning “Tarixi guzida”, Nizomulmulkning “Siyar ul-mulk” va Juvayniyning “Tarixi jahonkushoy” kabi asarlaridan foydalangan. Asar 10 ta bobdan iborat bo‘lib, uchinchi bobiga Husayn

Bayqaro hukumronlik qilgan yillari va Temuriyzodalar o‘rtasidagi taxt uchun kurash haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Asarning xotimasida esa mamlakat ichkarisi va tashqarisidagi inshootlar: madrasalar, rabotlar, xonaqohlar, shifoxonlar, kutubxonalar, bog‘lar hamda zamonasining mashhur ilm ahllari: shayxlar, olimlar, shoirlar, rassomlar va boshqa allomalar haqida qiziqarli ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Xususan, Alisher Navoiy va Husayn Bayqaro tomonidan bunyod etilgan ko‘plab inshootlardan “Ixlosiya” madrasasi va xonaqohi “Dorushshifo” yoniga qurilgani, Injil arig‘ining shohabchalaridan biri ularning o‘rtasidan oqib o‘tgani, xonaqohga Navoiy hazratlari har kuni tashrif buyurgani hamda faqir fuqarolarga taom ulashgani haqidagi ma’lumotlar shular jumlasidandir. Asarda keltirilushicha, bu har ikkala sharofatli joyda mashhur ulamolar va fozil kishilardan iborat yetti kishi diniy masalalarni tahqiq qilish va tabiy ilmlarni tadqiq etish bilan shug‘ullanishgan. Bu yerning toleyi va barokati yuksakligidan jahonning turli burchaklaridan tolibi ilmlar kelar va o‘z vatanlariga donishmand bo‘lib qaytganlar [Xondamir: O’zFAShI qo’lyozmasi. Inv. №2209]. Ularga ulug‘ ulamolardan uch nafari: Jamoliddin Otoullo Asliy, Amir Sadriddin Ibrohim Mashhadiy, Xo‘ja Imomididdin Abdulaziz Abhariylar dars va pand-nasihat berganlar [Axmedov B.: 2001, B.50]. Bu asar XV asr oxiri–XVI asr boshlarida Xuroson va O‘rta Osiyoda ilm-fan, ma‘daniyat hamda adabiyot keng taraqqiy etkanligini ko‘rsatadi.

“Habib us-siyar fi axbor va afrod ul-bashar” asari esa Xondamirning hajm jihatidan katta va salmoqliysi bo‘lib, Movarounnahr hamda Xurosonning XV asr oxiri–XVI asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixni o‘rganishda muhim va qimmatli manbalardan bo‘lib xizmat qiladi. Bu asar 1515–1523 yillarda yozilgan bo‘lib, olimlarning takidlashicha, Xondamir aslida “Habibus-siyar”ni 1520-yilda Safaviylar davlatining Xirotdagi nufuzli kishisi sayyid Amir G’iyosiddin Muhammad ibn Amir Yusufga bag‘ishlab yoza boshlagan. Ammo u 1521-yil yozida Xirot hokimi Amirxon tomonidan Bobur Mirzoga tarafdorlik qilganlikda ayblanib, qatl qilngan va unga bag’ishlab yozilayotgan asar to’xtatib qo’yilgan. 1522-yil Xo’ja Karimuddin Xo‘ja Habibullox Sovajiy Hirotga vazir bo’lgach, ushbu kitobni yozishiga homiylik qilgan. 1528–1535 yillarda Hindistonda qaytadan ko‘chirilgan. Umumiy tarix yo‘nalishidagi ushbu asarda qadim zamonlardan to XVI asrgacha bo‘lgan davrda musulmon mamlakatlari, xususan Eron, Afg‘aniston, Iroq va O‘rta Osiyoda sodir bo‘lgan voqea-hodisalar haqida ma‘lumot berilgan. "Habib us-siyar" muqaddima, uch bob va xotimadan iborat. Asarning muqaddimasida olamning yaratilishi xotimasida esa olamning ajoyibotlari (iqlim, daryolar, dengizlar, ko‘llar, sahro va tog‘lar) haqida so‘z boradi.

Asarning birinchi bobida johilyat va islomdan ilgari bo‘lgan voqea hodisalar va payg‘ambar Muhammad (s.a.v), shuningdek, to‘rt xalifa: Abubakr (632–634), Umar (634–644), Usmon (644–

656), Ali (656–661) zamonida yuz bergan voqea-hodisalar aks ettirilgan. Asarning ikkinchi bobida shia mashabidagi imomlar: Ummaviylar va Abbosiylar haqida, shuningdek, arablar zamonida hukmronlik qilgan boshqa sulolalar Tohiriylar, Safforiylar va Samoniylar sulolasi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Uchinchi bobi esa Chingizxon va uning avlodlaridan Shayboniylar sulolasigacha bo'lgan voqea-hodisalar haqida ma'lumotlar berilgan. Asarning eng qimmatli jihati ham uchinchi bobining uchunchi qismida Amir Temurning tug'ilishidan tortib, vafotigacha bo'lgan voqealar aks etgan. Ushbu bobning to'rtinchi qismida muallif shaxsan o'zi ishtirok etgan va o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealarni aks ettirgan. Asarning shu qismi O'zbekiston Fanlar Akademyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida saqlanmoqda. Asarning salmoqli bir bo'lagi, Tehron nashrining III va IV jildlari ba'zi qisqartirishlar bilan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Xususan, bu asarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy masalalariga oid ma'lumotlar: yer egaligi, tarxonlar, suyurg'ol yer egalari va ularning jamiyatda tutgan mavqei, Temuriylar davlatining ma'muriy tuzilishi va mamlakatda yuz berayotgan tinimsiz urushlar 1498-yildagi Samarqand qamali, 1514–1515-yillardagi qahatchilik haqida ma'lumotlar berilgan. Xondamir ushbu asarining Temuriylar (Husayn Bayqaro va uning avlodlari) Boburlar, Safaviylar va Shayboniylarga bag'ishlangan boblarida ham shaxsan o'zi guvoh bo'lgan voqea-hodisalarni yozib qoldirgan. Muallif ushbu asaridagi Amir Temur va temuriylar hukumronligi davriga oid fikrlarini, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sadayn va majmai baxrayn" asarlarini hatto bobosi Mirxondning "Ravzat ul-safo" asarida shu masala yuzasidan keltirilgan ma'lumotlarni tanqidiy o'rganish asosida berib o'tgani e'tiborga molikdir.

Bundan tashqari muallifning "Habib us-siyar" asaridan ko'plab tarixnafis olimlar ham o'z asarlarini yozishdan foydalanishgan. Iskandarbek Turkmanning "Tarixi olamoroyi Abbosiy", XVI asrdagi noma'lum yozuvchining "Badoyi ut-tarix" asarida, Muhammad ibn Arab Kattag'onning XVII asrda yozgan "Musaxxir ul-bilod", Mirzo Rumuzning "Temurnoma", Xo'ja Mir Muhammad Salimning "Silsilot us salotin", Mirzo Rabi ibn Mir Niyoz ul-Hasaniy ul-Husayniyning "Umadat ut-tavorix", noma'lum yozuvchi tomonidan yozilgan "Muraqa ul-badoyi" kabi asarlarda "Habib us-siyar" dan keng ko'lamda foydalanilganini ko'rish mumkin.

Yevropada esa "Habib us-siyar" haqida dastlab 1842-yil Xo'ja Halifa keltirgan ma'lumotlardan ma'lum bo'lgan. 1918-yil esa Bankipur katalogini tuzuvchilar asar mavjudligini yozgan. 1927-yil Ch.A.Stori "Персидская литература" asarida "Habib us-siyar" haqida qisqa ma'lumot bergan. 1972-yil Y.Bregel uni qayta ishlab to'ldirilgan nashrda asarning

ilmiy tafsiflari mavjud bo'lgan kataloglar, nashirlar va asardan olingan alohida parchalar tarjimalari haqida ma'lumot bergan. 1926-yili V.V.Bartold ozining "Работы по исторической географи" nomli kitobida (1944-yil birinchi nashrida, 1965-yil ikkinchi nashrida), Sarfar Guyo Etimodiyning "Fasli az Xulosat ul-axbor" asarida, 1945-yil Abdulhusayn Navoiyning "Rijol kitobi Habib us-siyar" nomli asarining kirish qismida, A.N.Boldrevning "Очерки из жизни гератсково общества" nomli asarida, Zayniddin Vosifiy keltirgan ma'lumotlar to'riligiga ishonch hosil qilish uchun "Habib us-siyar" bilan solishtirgan. 1958-yil "История Ирана с древнейших времен до конца XVIII в" nomli asari mualliflari jamoasi "Habib us-siyar"ni XIV–XV asrlar Eron tarixiga oid eng muhim manbalar qatoriga kiritgan. D.Erbelo, V.A.Jukoviskiy kabi tarixchilar o'z asarlarini yozishda "Habib us-siyar"dan keng foydalanishgan [Bartold: 2002].

XX asrning ikkinchi yarmida Xondamir ilmiy merosidan tarixiy-badiiy asarlarni yaratishda ham keng foydalanilganini ko'rish mumkin. Xususan, Maqsud Shayxzoda, Oybek, Izzat Sulton, Mirkarim Osim, Suyima G'aniyeva kabi mahalliy adabiyotshunos olimlarning Temuriylar davri tarixi yoritilgan asarlari fikrimizga dalil bo'ladi. Shu o'rinda adabiyotshunos olim Sadriddin Ayniy o'zining Alisher Navoiyga bag'ishlangan romanini yozishda ham Xondamirning "Habib us-siyarni" asari yettinchi bobidagi ma'lumotlardan foydalanganini yozib qoldirgan.

Bu borada B.A.Ahmedov, S.A.Azamjonova, N.S.Qoriyeva, N.Ibragimov, M.Ahmedov, D.Yusupova kabi mahalliy tarixchi-olimlarning Temuriylar davri manbashunosligiga bag'ishlangan tadqiqlari ham e'tiborga molikdir. Fikrimizga dalil sifatida tarixchi-olimlar B.Ahmedov va D.Yusuovalarning Xondamir hayoti va ilmiy merosining tarixiy ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan ilmiy ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin. B.Ahmedovning "Ulug'bek", D.Yusuovaning "Жизнь и труды Хондамира" nomli asarlari Xondamir asarining tarixiy manba sifatida ahamiyatini oshirgani barchamizga ma'lum. Ayniqsa, O'zbekiston Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zosi, tarix fanlari doktori, akademik D.Yusuovaning Xondamir ilmiy merosini o'rganishda xizmatlari kattadir. Olimaning keng ravishda olib borgan tadqiqotlari natijasi o'laroq yozgan doktorlik dissertatsiyasi orqali o'rta asrlarda tarix fanining rivojlanish tarixi, bu borada Xondamir va zamonasining boshqa ziyoli kishilari tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar, ular haqidagi qiziqarli tarixiy faktlar ilmiy muomalaga kiritildi. Olimaning ushbu mavzudagi tadqiqotlarining e'tiborga molik tomoni shundaki, unda G'iyosiddin Xondamirning hayoti va ijodi, bizgacha saqlanib qolgan va qolmagan jamiyki asrlari haqidagi yangi ma'lumotlar tahlil etilgan hamda tadqiqot natijalari monografiya shaklida e'lon qilingan.

Hozirgi kungacha G'iyosiddin Xondamirning bir qator asarlari turli tillarga tarjima qilingan va nashr etilmoqda. Xususan, "Habib us-siyar" 1857-yilda Bombey shaxrida 1954-yil Tehronda chop etilgan. O'zbekistonda esa asarning bir qismi 2012-yil "Buyuklik Xislati" nomi ostida "Sharq" nashiryotida, 2013-yil esa "O'zbekiston" nashiryotida bosmadan chiqqan. Sharq qo'lyozmalari katalogidan "Habib us-siyar"ning ko'plab nusxalari mavjudligi haqida ma'lum, jumladan, 14 ta Toshkent nusxasi, 20 ta Sankt Peterburg nusxasi, 7 ta Boku nusxasi, Britaniya muzeyi qoshidagi kutubxona nusxasi va Isatbul nusxlari borligini bilib olish mumkin.

Muallifning "Dastur ul-vuzaro" yoki "Tarixi vuzaro" (Vazirlar uchun qo'llanma) nomi bilan ma'lum bo'lgan asari Alisher Navoiyning topshirig'i bilan Husayn Bayqaro va uning vaziri Amir Kamoliddin Maxmudga bag'ishlab 1500-yil yozilgan. Alisher Navoiy vafotidan so'ng 1509-yil qayta to'ldirib kengaytirgan. Asarda Temuriylar sulolasi inqiroziga qadar bo'lgan voqealar va Sharqda o'tgan vazirlar haqida ma'lumot berilgan. Xususan asarda Mahmud Yalvoch haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Unda Mahmud Yalvochning Xorazimdan ekanligi Chingizxon e'tiboriga elichlik orqali tushgani va uniga va taxt vorisi O'qtoyga vazir bo'lgani, Shimoliy Xitoy egallanganidan u erga hokim qilib jo'natilgani haqida ma'lumotlar mavjud. "Dastur ul-vuzaro"ni ilk arabcha matni va tarjimasi 1891–1895 yillarda mashhur fransuz sharqshunos olimi Xaudas tomonidan tarjima qilingan. Ruscha tarjimasi esa 1973 yilda akademik Z.M.Buniyatov tomonidan Bokuda nashr qilingan.

"Makorim ul-axloq" (Oliyjanob hulqlar) esa Alisher Novoiyga minaddorchilik tariqasida 1501-yilda yozilgan. Navoiyning yuksak fazilatlari oliyjanob hislatlari va adabiy asarlari haqida ma'lumot bergan. Asarning yagona nusxasi Britanya muzeyida saqlanmoqda. 1981-yilda afg'onistonlik adabiyotshunos olim, shoir Abdulg'affor Bayoniy Kobulda nashrdan chiqqan.

Olimning "Nomayi nomiy" (Atoqli nomlar) asari "Inshoi G'iyosiddin" va "Inshoi Giyosiy" degan nomlari ham bor. Bu asar hali to'laligicha jamoatchilikka ma'lum emas. Kitob insho ilmiga (stilistika, turli maktub va farmonlar yozish qoidalari) bag'ishlangan asar bo'lib, Sharq mamlakatlarida o'tkan ayrim hukmdorlar, shayxlar, sadrlar, qozilar va shoirlarning farmon va maktubotlari hamda farmonlardan namunalar va ularni bitish tartibi bayon etilgan. "Nomayi nomiy" ning qimmatli jihati shundaki davlat mansablarining kelib chiqishi va ularning haq-huquqlari va vazifalari to'grisida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Lekin uni ayrim qismlari haqida ayrim asarlar va kataloglarda ma'lumotlar keltirilgan.

Muarrixning "Ma'osir ul-mulk" (Xamsar podshoxlarning tarixi) nomli asari Alisher Navoiy iltimosiga binoan, unga mintadorlik izxori tariqasida 1498–1499

yillarda yozilgan. Bu asar qadimgi podshoxlar va donishmandlarning hikmatli so‘zlarini o‘z ichiga olgan. Shuningdek asarda Qsayumarsdan Anushirvorgacha, Odam Atodan Buzrukvorgacha, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) va imomlar haqida bitilgan naqllardan iborat. Xususan, asarda Ummaviylar, Abbosiylar, G‘aznaviy hukmdorlar tarixi bilan Kurd podshoxlari va Turk xoqonlari tarixini yoritgan. "Maosir al-muluk" asari hali qidirib topilmagan. Afg‘onistonlik sharqshunos olim Guyo Etimodiyning so‘zlariga ko‘ra asarda Alisher Navoiy va Husayn Bayqaro bilan zamondosh bo‘lgan podshohlar, olimlar, ulamolar haqida so‘z boradi.

Muarrixning "Axbor ul-axyor" (Yaxshi insonlar haqida habarlar), "Muntaxab ut-tavorixi vassof" (Vassof ilmi haqida saylanma), "G‘aroyib ul-asror" (G‘aroyib sirlar), "Javohir ul-axbor" (Xabarlar gavharlari), “Osor ul-muluk va-l anbiya” (Podshox va payg;ambarlar haqida hikoya) kabi asarlari hanuz chuqur tadqiq etilmagan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, G’iyosiddin Xondamir o‘z davrining etuk tarixchi olimi, davlat arbobi hamda sheriyat va insho ilmi bilimdonlaridan biri b o‘lgan. Olimning asarlari boshqa tarixchilar asarlaridan sodir bo‘lgan voqea hodisalarda shaxsiy ishtiroki, izchilligi va haqqoniyligi bilan farq qiladi. Uning asarlari o‘ziga xos usulda yozilgan bo‘lib, jamiyatning barcha jabhalarini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini qamrab olganligi bilan e’tiborga molikdir. G’iyosiddin Xondamir asarlari orqali XV–XVI asrlardagi voqea va hodisalarni, Temuriylar davlati siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotida yuz bergan voqealarni jonli tasavvur qilish mumkin. Bundan tashqari muallifning bir qator asarlari bir-birini to‘ldirib borganligi ularning O‘rta Osiyo xalqlari tarixiga doir manba sifatidagi ahamiyatini oshirganini e’tirof etish zarur. Olimning asarlari, shunningdek, Shayboniylar va Boburiylar davlati tarixiga oid ko‘plab qiziqarli ma’lumotlarni o‘zida jamlagani bilan ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Асарлар. 12-жилд. – Тошкент, 1966.
2. Ахмедов Б.А. Хондамир. – Тошкент, 1965.
3. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: “O’qtuvchi”, 1994.
4. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: “O’qtuvchi”, 2001.
5. Ахмедов М.Б. Хондамирнинг “Қонуни Хумоиний” асари – муҳим тарихий манба сифатида. Т.ф.н. ил.дар. дисс. – Тошкент: 2002.
6. Бартольд В.В. “Работы по исторической георафи”. – Москва: «Восточная литература» РАН, 2002.
7. Xondamir. Qanun-i-Huvayuni of Khwandamir /Edit by M. Hidayat Hosain. – Pp. N XXXIV.

8. Xondamir. “Xulosat ul-axbor” O’zFAShI qo’lyozmasi. Inv. №2209.
9. Хондамир. Буюклик хислати. Таржима, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи Исмоил Бекжонов. – Тошкент: “SHARQ”, 2011.
10. Хондамир. Ҳабиб ус-сияр / Масъул мухаррир Ваҳоб Раҳмонов. – Тошкент: “O’zbekiston”, 2013.
11. Юсупова Д.Ю. Хондамир Темурийлар даври маданияти ҳақида / Амир Темур ва Темурийлар даври: янги тадқиқотлар. –Тошкент, 2005 – Б. 20-26.
12. Юсупова Д.Ю. Хондамирнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида ёзма маълумотлар // Тарихий манбашуносликнинг долзарб муаммолари. –Тошкент, 2005. – Б. 55-61.
13. Юсупова Д.Ю. “Жизнь и труды Хондамира”. – Ташкент: ‘Фан”, 2006.
14. Юсупова Д.Ю. Хондамир ва Бобур: фан ва маданият тараққиёти ҳақида // Бобур ва Бобурийларнинг жаҳон маданиятида тутган ўрни. – Тошкент, 2008. – Б. 16-18.
15. Jumayev G‘. Muarrix G‘iyosiddin Xondamirning «Habib us-siyar fi axbori
16. afrodi al-bashar» asarining o‘rganilishi // Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методи ва методологиясининг долзарб масалалари. – В. 170-172.
17. https://oriftolib.uz
18. – Б. 14-22.